

ERTAKLAR ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA SURATLARDAN FOYDALANISH USULINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayeva Muxlisa Akmaljon qizi

NamDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs magistranti.

Email: muxlisadavlatova2@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20152987>

***Annotatsiya.** Mazkur ishda ertaklar orqali o'quvchilar nutqini o'stirishda rasmlardan foydalanish usullarini takomillashtirish masalasi yoritilgan. Unda ta'lim va tarbiyaning uzviyligi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi, xususan ertaklarning ahamiyati ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan. Ertak matni bilan ishlash jarayonida illyustratsiyalar, rasm chizdirish, "Suratli diktant", "Davom ettir", "Nima ortiqcha?", "Klaster" kabi ta'limiy o'yin va metodlarning samaradorligi ochib berilgan.*

Shuningdek, rasmlar asosida suhbat tashkil etish, ertak mazmunini qayta hikoyalash va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari ertak va tasviriy vositalar uyg'unligida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning tafakkuri, tasavvuri hamda ijodiy fikrlash qobiliyatini samarali rivojlantirishini ko'rsatadi.

***Kalit so'zlar:** Ertak, nutqni rivojlantirish, boshlang'ich ta'lim, o'quvchi nutqi, tasviriy vositalar, illyustratsiya, rasm asosida o'qitish, "Suratli diktant", ta'limiy o'yinlar, klaster usuli, ijodiy fikrlash, og'zaki nutq, yozma nutq, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, tasavvur va tafakkur, "Pantomimo" o'yini.*

***Аннотация.** В данной работе освещен вопрос совершенствования методов использования рисунков в развитии речи учащихся посредством сказок. В ней научно-педагогически обоснована преемственность образования и воспитания, значение устного народного творчества, в частности сказок, в развитии речи учащихся начальных классов.*

В процессе работы с текстом сказки раскрыта эффективность таких образовательных игр и методов, как иллюстрации, рисование, "Диктант с картинками," "Продолжай," "Что лишнее?," "Кластер." Также показаны способы увеличения словарного запаса учащихся, развития устной и письменной речи посредством организации беседы на основе рисунков, пересказа содержания сказки и творческих заданий. Результаты исследования показывают, что уроки, организованные в сочетании сказок и изобразительных средств, эффективно развивают мышление, воображение и творческое мышление учащихся.

***Ключевые слова:** Сказка, развитие речи, начальное образование, речь учащегося, изобразительные средства, иллюстрация, обучение на основе рисунка, "Картинный диктант," образовательные игры, кластерный метод, творческое мышление, устная речь, письменная речь, педагогические технологии, интерактивные методы, воображение и мышление, игра "Пантомимо."*

***Abstract.** This work highlights the issue of improving the methods of using pictures in developing students' speech through fairy tales. It provides a scientific and pedagogical justification for the continuity of education and upbringing, as well as the significance of folklore, particularly fairy tales, in the speech development of primary school students.*

In the process of working with the text of the fairy tale, the effectiveness of educational games and methods such as illustrations, drawing, "Dictation with pictures," "Continue," "What's extra?," "Cluster" is revealed. Additionally, ways to increase students' vocabulary and develop their oral and written speech through organizing conversations based on pictures, retelling the content of fairy tales, and creative assignments are shown. The research results indicate that lessons organized through a combination of fairy tales and visual aids effectively develop students' thinking, imagination, and creative thinking skills.

Keywords: *Fairy tale, speech development, primary education, student speech, visual aids, illustration, teaching based on pictures, "Dictation with pictures," educational games, cluster method, creative thinking, oral speech, written speech, pedagogical technologies, interactive methods, imagination and thinking, "Pantomimo" game.*

KIRISH. Ta'lim va tarbiya bir-birini taqazo etuvchi ajralmas tushunchalar ekanligi yillar davomida ta'kidlab kelinmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari buning yaqqol tasdiq'idir: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz".

Respublikamizda kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan bunday kata e'tibor ta'lim tizimi va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalar yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish chuqur bilim va katta mahoratni talab etadi. Ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardir.

Maktab ta'limi sohasida ham bu ishlarni amalga oshirishda darslarni samarali usullardan foydalanib tashkil etishni talab etmoqda.

Xalq og'zaki ijodida eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Ertaklar xalq hayoti, milliy ma'naviyati, urf-odatlarini, udumlari, an'analari, orzu-umidlarini aks ettirib, nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham ma'naviy, axloqiy va badiiy oziqa beradi.

Xalqimiz "Ertaklar – yaxshilikka yetaklar" deb bejiz aytmagan. Ular har bir xalqqa xos va mos bo'lgan hikoyatlaridir. Xalq ertaklari tarbiyaviy jarayonni yaxlitligicha tashkil etish, ya'ni axloqiy, ma'naviy, ekologik, estetik va aqliy rivojlanish chegaralarini kengaytirish imkonini beradi. Ayni paytda ular tinglovchining ko'pgina yaxshi xotiralarini yodiga soladi.

Inson bolaligidan boshlab yaxshilikka, ezgulikka doimo intilib yashaydi. Har bir bola ertak tinglayotgan chog'ida qahramonlardan biriga o'xshashni, ularga taqlid qilishni orzu qiladi.

Kitoblardagi rasmlarni qiziqish bilan tomosha qilish, kattalarning nutqini qanday maroq bilan tinglash bolalarning ertaklarga ijobiy munosabatda ekanligidan dalolat beradi.

Ertaklardagi obrazlar his-hayajonga boy, rangdor va shu bilan birga kichkintoylarning tushunishlari uchun sodda bo'lib, haqiqatga yaqinligi bilan ularni o'ziga rom etadi. Ertaklar yordamida bolalarning xotirasi, diqqati, tafakkuri rivojlantiriladi, tasavvur va fantaziyalari uyg'otiladi. Fantaziyaning uyg'otilishi har xil ertak qahramonlarining qilgan ishlarini umumlashtirish orqali turli ajoyibotlarni, yangi sarguzashtlar yaratishda yaqqol ko'rinadi. Shu bilan birga bolaning nutqi, tafakkuri o'sishi bilan bir qatorda dunyoqarashi ham kengayib boradi.

Ertaklar tinglash, o'qish – ona tilida til va nutqning taraqqiy etishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Matni o'qib berishdan oldin uning sarlavhasi aytiladi va o'quvchilardan shu nomdagi yoki shunga yaqin ertakni eshitgan-eshitmaganliklari so'raladi. Shubhasiz, o'quvchilarga xos bo'lgan tashabbuskorlik, bilgan narsalari haqida o'z o'rtoqlari bilan bo'lishish istagi mavjudligi tufayli ko'pgina ijobiy javoblar olish mumkin.

Sarlavha asosida ertakning nima haqida ekanligini aytib berish so'raladi. Maqsad shuki, birinchidan, sarlavha yordamida bolalarni o'ylashga majbur etish, ikkinchidan, erkin muloqotga qatnashtirish. Ular ko'pincha o'z fikr-mulohazalarini bildirgan holda qahramonlarga tavsif bera boshlaydilar. Masalan, Zumrad – mehnatsevar qiz. Qimmat esa yalqov. Bunday suhbatlar bolalarda ko'proq ertak tinglab borish kerak, ekan degan xulosaning shakllanishiga olib keladi

Bundan tashqari, turli mavzuga tegishli ertak qahramonlari tasvirlangan rasmlar (illyustratsiyalar) tanlanib, navbat bilan stol oldiga kelgan o'quvchilardan ertak mazmuniga mos keladigan rasmlarni tanlash taklif etiladi. Rasm idrokni yana ham chuqurlashtiradi. Bolalar ertak tinglash paytida ko'z oldilariga keltirishga ulgurgan jihatlar: qahramonlarning kiyinishlari, o'zlarini tutishlari va boshqa holatlar rasm yordamida jadal anglanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga va ilk yuqori sinflarga qadam qo'ygan 5-sinflarga ertak asosida rasmlar chizishni ham topshirish foydali. Rasm chizish paytida o'quvchida axborot yetishmasligi seziladi. U o'qituvchidan ba'zi narsalarni so'rab bilishga intiladi. Natijada ertak mazmuniga yanada chuqurroq kirib borish uchun imkoniyat paydo bo'ladi. Shu bois ertak asosida o'quvchi tomonidan chizilgan rasmlarda axborot ko'proq bo'ladi.

Ular chizgan rasmlarga chuqur nazar tashlansa, uning mazmuni, tasvirning tavsifi, ifodalilik vositalari tahlil qilinsa, bolaga qaysi ertak qahramoni yoqqani, unda qanday his-hayajon uyg'otganini bilish mumkin. Shu bilan birgalikda "Suratli diktant" metodidan foydalish ham samarali.

"Suratli diktant" metodi

Bu o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, estetik didlarini, ijodkorlik ishtiyoqlarini shakllantiradigan o'qitish usuli hisoblanadi. Bunda sinfxonadagi stollar orqama-orqa qo'yiladi. O'quvchilar ham bir-birlariga orqa o'g'irgan holda suratlar chizadilar.

Alohida dars ko'rinishidagi bu usulda birinchi o'quvchi manzarani bayon qiladi, o'rtog'iesa uni suratga tushiradi. Diktant davomida o'quvchilar o'rin almashadilar va surat chizib bo'lingach, u tasvirlanadi.

Ertakning bolalarda tug'ilyotgan his-hayajonga ta'siri nechog'lik jadal bo'lsa, ular chizgan rasm shunchalik qiziq va rang-barang bo'ladi. Bundan tashqari, bolalar o'zlari chizgan rasmlarni (odam, hayvon) qirqib olib erkin mavzularda o'yin o'ynashni ma'qul ko'radilar.

O'qituvchi o'quvchilarga ertak o'qib berish mobaynida ertak elementlari orqali ularning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirgan holda obrazli tafakkurining o'sishiga ma'lum darajada ta'sir etadi. Sekin-asta o'zlashtirmovchi o'quvchining o'zi ham bu jarayonda ishtirok eta boshlaydi, ya'ni avval rasmlarni tomosha qiladi, so'ngra ovozga taqlid qilish orqali ertak qahramonlarining nomini aytilishga, tanish jummalarni davom ettirishga harakat qiladi va, nihoyat, ertakni qayta so'zlab beradi.

Keyingi jarayonlarda u bir necha ertakni qiyoslash, taqqoslash, ertak qahramonlariga taqlid qilish va tavsif berish, mavzuli yo'nalishda o'zgarishlarni sezish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Ertakning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, qahramonlardan biri ijobiy, ikkinchisi salbiy bo‘ladi. Asar qahramoni kuchli va jasur bo‘lsa, u atrof olamni go‘zallik bilan boyitadi.

Albatta, kuchli bo‘lish uchun gavdali odam, pahlavon bo‘lish shart emas. O‘quvchilar ham kuchli va jasur bo‘lishlari mumkin. Ertakda mitti tipratikon ham saxovatli, qalban mard, tirishqoq bo‘lgani uchun kuchli va jasur qahramonga aylanadi.

Ertak o‘qib bo‘lingandan keyin bolalarni umumlashma, xulosa chiqarishga undash, “Agarda ertakdagi qahramon o‘rnida bo‘lganingda nima qilgan bo‘larding? Seningcha, ertak qahramoni yaxshimi yoki yomonmi? Agarda u qilishi kerak bo‘lgan ishni bajara olmaganda nimalar yuz berishi mumkin edi?” kabi savollar bilan erkin muloqotga chaqirish ularning faolligini yanada oshirishga yordam beradi.

Mazkur yoshda bolalar hamma narsani to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qiladilar. Shuning uchun taklif etilayotgan rasmlar, kino lavhalar imkon boricha o‘tilayotgan mavzuga mos (realistik) bo‘lishi, ya‘ni qaysidir jihati bilan o‘xshashi, syujeti boshqa bo‘lib qolmasligi lozim va hokazo.

Agar o‘quvchi savollarga javob berish va matnni diqqat bilan eshitish qobiliyatiga ega bo‘lsa, demak, uning nutqi me‘yorida rivojlanayotgan bo‘ladi. Matn bilan ishlash ikki bosqichda olib borilishi kerak: dastlab o‘quvchilarga bitta matn o‘qib eshittiriladi va qayta hikoyalash vazifasi beriladi, so‘ngra matn yuzasidan beriladigan savollarga javobni rasm chizish orqali bajarish talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Nutq o‘stirish haqida gapirilar ekan, kamida ikki holatni hisobga olish zarur bo‘ladi. Birinchidan, odatda, bola eshitganlarining hammasini xotirada saqlab qola olmaydi va har bir qayta tinglash jarayoni unga ertakning yangi qirralari bilan tanishish imkonini beradi. Ikkinchidan, boshlang‘ich ta‘limdagi o‘quvchiga axborotning o‘zi emas, balki samarali axborot olish jarayoni, shu jarayonning modeli muhimdir.

Tanish bo‘lgan adabiy matnni o‘qiyotgan yoki yaxshi eslab olingan matnni yodga tushirayotgan kishi axborotni qabul qilish kanallari orqali boshqatdan uzatadi, tasodifiy jarayon tahlilini qayta modellashtiradi va bunga mos keladigan rag‘batlantirish tizimini qayta ishga tushiradi [1.105-b]. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish maqsad qilib olinarkan, albatta, ertaklar tasvirlangan rasmlar asosida suhbatlar uyushtiriladi. Rasm asosida suhbatda e‘tibordan chetda qolgan joylarga turli yo‘naltiruvchi savollar orqali bolalar diqqatini qaratmoq lozim.

Masalan, “Maymun va duradgor” ertagi asosida bolalarga quyidagi savollarni berish tavsiya etiladi: Duradgor kasbi nima ishlarni bajaradi? Duradgor nima qildi? Rasmda yana nimalar tasvirlangan? Yog‘och orasida nima bor edi? Ertakda yana nimalar sodir bo‘ldi? Maymun nima uchun yog‘ochni yora olmadi? Bunga sabab nima deb o‘ylaysiz? Shu mavzuga doir yana qanday maqollarni yoki ertaklarni bilasiz? va hokazo [2.46-b].

NATIJA VA XULOSALAR. Bundan tashqari, ertaklarning mazmunini hikoya qilishga o‘rgatish, shu jarayonda bolalarning so‘z boyligini oshirish ishini tasviriy faoliyat hamda mozaika bilan uzviylikda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, mozaika ishida ertak qahramonlari berilgan rasm bo‘laklarini tuzish orqali ertak personajlarini topish o‘quvchilarda sezish va idrok qilish tajribasi, tasavvur, xotira, diqqat rivojlanadi, aqliy qobiliyati yanada kamol topadi. Shuningdek, o‘quvchining nutqiy faolligi ortib, nutqni to‘g‘ri tushunish va to‘g‘ri tashkil etish malakasi mustahkamlanadi.

Yuqoridagilarni nazarda tutgan holda, 1-sinfda ertaklar orqali o'quvchilar nutqini o'stirishda rasmlardan foydalangan holda so'z boyligini oshirish yuzasidan quyidagi usul va ta'limiy o'yinlarni qo'llash tavsiya etiladi:

1. **“Davom ettir” ta'limiy o'yini.** Mazkur o'yinni tashkil etishdan asosiy maqsad bolalarni asar matni asosida chizilgan rasm bo'yicha boshlangan ertakni davom ettirishga o'rgatish.

2. **“Nima ortiqcha?” o'yini.** Ertak qahramonlarining rasmlaridan qaysi biri boshqa mavzuga tegishli ekanligini topish.

3. **“Klaster” usuli.**

o Ertakning asosiy mavzusi o'rta joylashtiriladi.

o Mavzu asosida ertak qahramonlarining rasmlarini topib, mavzu atrofida doira shaklida joylashtirish talab etiladi.

o Ertak qahramonlaridan birining rasmi markazga joylashtirilib, unga umumiy tavsif berish vazifasi topshiriladi.

o Qahramonlarning suratlari doira shaklida yopishtirilib chiqiladi va ertak qaysi mavzuga xos ekanligi aniqlanib markazga joylashtirish taklif etiladi.

4. Bolalardan ertakni rasm asosida boshlash yoki davom ettirish talab etiladi.

5. Ertak asosida rasm chizdirish.

6. Berilgan rasmlar asosida **“Mening sevimli ertak qahramonim”** mavzusida insho yozish (4–5 gapdan iborat). Rasmda aks ettirilgan ertak qahramonini ta'riflash.

7. **“Pantomimo” o'yini.** O'quvchilarga rasmlar tarqatiladi. Har bir o'quvchidan ertak qahramonlarining yurish-turishlarini bajarib ko'rsatish talab etiladi. Qolgan o'quvchilar esa qaysi qahramon roli o'ynalayotganligini topishlari kerak [3.19-b].

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ertak yuzasidan olib boriladigan ishlarni rasmlar asosida tashkil etish orqali o'qituvchi samarali ravishda o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, og'zaki va yozma nutqini o'stirish, tafakkurini rivojlantirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. R.Yo'ldoshev, R.Xusainova, U.Bobojanova. Ta'limning interfaol metodlari. O'quv qo'llanma. Urganch-2011.
2. M.Usmonboyeva, Sh.Aripova, I.Rejametova, D.Mo'minova. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Metodik qo'llanma. Toshkent-2019.
3. M.Jo'rayev, J.Eshonqulov “Folklorshunoslikka kirish”, o'quv qo'llanma, Toshkent-2017.
4. O'zbek xalq ertaklari”, yangi asr avlodi nashri, Toshkent-2017.
5. Sobirova M. O'qituvchi faoliyatini pragmatik yondashuv asosida takomillashtirish. “Ta'lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnal. 13.00.00 – Pedagogika fanlari jurnali. NamSPI.UZ. ISSN:2992-9008; UDK:37. 2025-yil 1-son. 674-684-betlar.
6. Sobirova M. Xorijiy tajribalarga ijodiy yondashgan holda ta'limni rivojlantirish. “Til ta'limi tendensiyalari: muammo, yechimlar va istiqbollari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – Namangan. 4-iyun 2025-yil. – B. 38-46.

7. Yusupdjanoyna, S.M. (2024). Innovation-integration approach to developing students' language and communicative competence. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 43-50.